

JON GRISHAMNING ILK "QOTILLIK VAQTI" ROMANIDA MAKON, ZAMON KATEGORIYASI VA HUQUQIY JARAYONLARNING BADIY O'ZIGA HOSLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7542718>



ELSEVIER



Received: 16-01-2023

Accepted: 16-01-2023

Published: 22-01-2023

Niyazov Ravshan Turakulovich

f.f.d (Phd)Dotsent

"Toshkent irrigatsiya va qishloq  
xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti"

Milliy tadqiqot universiteti  
docravshanniyazov@gmail.com



**Abstract:**

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**INTRODUCTION:** Amerikalik mashhur yozuvchi, advokat va siyosatchi John Grishamning "A time to kill" romani afro-amerikanlarga qarshi kurashgan oq tanlilarning irqchilik harakatlarini o'zida aks ettirgan yuridik detektiv janrdagi asar bo'lib hisoblanadi. E'tirofga sazovor qismi shundaki, John Grisham ushbu asarda har bir qahramonni, xoh bosh, xoh yordamchi qahramon bo'lsin batafsil tasvirlab bergen. Asarda muallif irqchilik masalalari bilan bir qatorda 20- asr Amerika Qo'shma Shtatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini ham hikoya qiladi.

Voqealar Amerikadagi Fuqarolar urushi davomida sodir bo'ladi. Yuz berayotgan ayirmachiliklar, irqiylengen tengsizliklarning barchasi bir asarda jamlanib, ijtimoiy tandiq ostiga olingan. Wilson ta'kidlaganidek: "ijtimoiy tanqid bu shunchaki xalqning turmush tarzini ko'rsatish bilan o'z ifodasini topmaydi, balki u jamiyatdagi boshqa jihatlarni ham, jumladan, odob-axloq, siyosat, madaniyat, etika-estika, hayotiy normalar kabi keng tushunchalarni barchasini o'z ichiga oladi."<sup>120</sup>

John Grisham o'zi yuridik advokat sifatida ham faoliyat yuritganligi sababli asarda o'zining vakili sifati Jake Brigance ismli qahramonni yaratadi. Va o'zining asar haqidagi qaydlaridan birida shunday degan edi: "Bu kitobda autobiografiyalar ko'p. Men boshqa huquqshunoslik bilan shug'ullanmayman. Lekin 10 yildan buyon Jake Brigancega qilgan ishlarga juda ham o'xshash ishlarni bajardim." (Grisham, 1992:xi).

**MAIN BODY:** John Grishamning "A time to kill" romani uch jihatdan o'zaro moslashib yaxlit mukammal bir asarni paydo qilgan. Yana ham aniqroq aytadigan

<sup>120</sup> Fredickson, M. Goerge. (1996). Black Liberation: A Comparative History Of Black Ideologies In The United States And South Africa. Oxford: University Press paperback.

bo'lsak, bular - makon, zamon va ijtimoiy munosabatlar kategoriyalari. Bu uchlik o'zaro birlashib muallif aytib bermoqchi bo'lgan voqealar rivojining kitobxon ko'z o'ngida real gavdalanishini ta'minlaydi.

➤ *Makon kategoriysi*

1) *Clanton shahri*

Voqealar Mississippi, aniqrog'i Klanton shahrida sodir bo'ladi. Buni yozuvchining quyidagi jumlalaridan bilib olishimiz mumkin:

"U Adams ko'chasiga qaytib keldi. Ikki mavze sharqda Vashington ko'chasiga o'tib ketadigan Jefferson tomon burildi. Jake har bir kichik janubiy shaharchada Adams, Jefferson va Vashington borligiga, ammo Linkoln va Grant ko'chalari yo'qligiga hayron bo'lardi. Vashington ko'chasi Klanton maydonining shimoliy tarafidagi sharqiy va g'arbiy qismlarga olib borardi."<sup>121</sup> (Grisham, 1992:21)

Ushbu iqtibos voqeа yuz berayotgan joyning joylashuvini aniq tasvirlab beradi. Jake janubda keng tarqalgan ko'cha nomlarini eslatib o'tadi. Jumladan Mississippi shtatidagi ko'cha nomlarini - Ford okrugi, Van buren okrugi, Forgi okrugi, Adam ko'chasi va Jefferson ko'chasi kabilarni hayolidan o'tkazadi.

2) *Sud binosi*

"A time to kill" asaridagi aksariyat voqealar Ford okrugi sudidagi ichki va tashqi vaziyatlar bilan bog'liq. Bunday deyishimizga sabab mazkur romanda Karl Lee Hailey sud jarayoni hikoya qilinadi.

"U bino o'rgandi. Orqa eshiklarning ikki tabaqasi ichkariga katta va to'rtburchak kirish zali tomonga ochilgan edi. Chap hamda o'ng tomonda zinapoyalar. Ochiq maydon torayib zalga olib kirardi. Karl Lee o'zini sud qilinayotganday ko'rsatdi. U qo'llarini orqasiga ushlab, eshikka suyandi. U o'ng tomonga zinapoya tomonga qarab o'ttiz qadam yurdi, zinadan yuqoriga ko'tarildi, yana o'n qadam, keyin kichik maydoncha, so'ngra xuddi Lester aytganidek to'qson daraja chapga burildi, yana o'n qadamdan keyin kutish xonasi paydo bo'ldi. Kutish xonasi o'n beshga o'n besh kichik xona bo'lib, unda bir deraza va ikki eshikdan bo'lak hech narsa ko'rinasdi. U bir eshikni ochib uch o'rini o'rindiqlar bilan to'la katta sud zaliga kirdi." (Grisham, 1992: 51).

Yuqoridagi iqtibos orqali Grisham sud binosidagi aynan sud zali joylashgan qavat tafsilotlarini bayon etadi. Tasvirning bu qadar aniq va tushunarli tilda berilishi Karl Leening rejasini qo'llab-quvvatlash uchun juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki binoni batafsil tushuntirmasdan turib, kitobxonga Karl Lee nega qizini zo'rланган ikki qizil tanlini o'ldirishdan oldin tozalash uskunalari saqlanadigan xonani yashirish joyi sifatida tanlaganligini sababini tushuntirish mushkul edi. Voqeа nafaqat sud zalida, balki sud binosi oldidagi

<sup>121</sup> John Grisham. A time to kill. 1992

maydonda ham sodir bo'lgan edi. Asarda muallif biror bir tafsilotni e'tibordan chetda qoldirmay joyni yaxlit tasvirlaydi.

"Maydonga olib boradigan yon ko'chalar tirband bo'lib qoldi, chunki har tomondan mashinalar sud binosi tomon o'tib, oxiri yaqinlasha olmay to'xtab qolishgan edi. Yuzlab qora tanlilar mashinalarini ko'chalarda qoldirib, tantanali ravishda maydon tomon yurishdi. Ular gazebo atrofida aralashib, e'lonlarini kutishdi, keyin eman va magnoliyalar orasidan soya izlab, do'stlar bilan salomlashishdi. Ko'proq cherkov avtobuslari keldi va tirbandlik tufayli maydonni aylana olmadi. Ular qahvaxona yonida turishardi" (Grisham, 1992: 326).

Yozuvchi John Grisham uchun sud binosining janubiy qismidagi yo'llarning batafsil tafsilotlarini eslatib o'tish asarni kitobxon hukmiga havola etishdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun nihoyatda muhim edi. Hikoya markazi hisoblangan Klanton kichik shaharchasi maydonlari, futbol maydonlari va qahvaxonalar bo'lgan boshqa kichik shaharchalardan deyarli farq qilmasdi. Biroq muallif uning o'ziga xos jihatlarini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirishga harakat qiladi.

### 3) *Politsiya mahkamasi*

Asar muvaffaqiyatlari yaratilishi uchun katta hissa qo'shgan yana bir joy - bu politsiya mahkamasi. Chunki jinoyat sodir bo'lgandan keyingi voqealari shu yerda ro'y beradi. Sudlanadigan har bir aybdor oldin shu binoga olib kelinadi.

"Har yakshanba kuni tushdan keyin soat ikkidan beshgacha Ford okrugi qamoqxonasidagi mahbuslar qamoqxona orqsidagi kichik orqa ko'chani kesib o'tuvchi katta hovlida aylantirilar edi. Har bir mahkumning uchta qarindoshi yoki do'sti bir soatdan ko'p bo'limgan muddatda ichkariga kiritilardi. Hovlida bir juft soyali daraxtlar, singan o'rindiqlar va yaxshi saqlangan basketbol halqasi bor edi. Panjaraning narigi tarafidan esa qo'riqchilar va itlar diqqat bilan mahbuslarni kuzatib turishardi. (Grisham, 1992: 220).

Guvohi bo'lganingizdek, tasvirlar shu darajada mohironalik bilan berilganki, beixtiyor o'zingizni voqealar sodir bo'layotgan joyda tasavvur qilasiz.

### 4) *Jake Brigancening uyi*

Bu uy nihoyatda qadimiy bino bo'lib, "Tarixiy joylar milliy ro'yxati" ga kiritilgan ikki tarixiy binodan biri. "A time to kill" romanida bir nechta uylar tilga olingan bo'lishiga qaramay, aynan Jake Brigancening uyi doimo diqqat markazida edi. O'sha davrlarda Amerika Qo'shma Shtatlari ozchilikni tashkil qilgan afro-amerikaliklarga qarshi irqchilik harakatlarini olib bordi. Ku Klux Klan deb atalgan oq tanlilar tashkiloti ozchilik bo'lgan afro-amerikaliklar, yahudiylar, osiyoliklar hamda rim katoliklarini yo'q qilishni maqsad qilgan edi. Jake Brigancening uyi Ku Klux Klan (KKK) tashkiloti tomonidan deyarli portlatilgan. Shu sabab bu uy ham asar voqealarini o'zida akslantirgan joylardan biri hisoblanadi.

Asarda Jakening uyi ko'p marotaba eslanadi. Bir necha voqealar xuddi shu uyda sodir bo'ladi. Bu uyda sodir bo'lgan voqealar shu uyning tarixi bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, klan jamoasining uyni portlatishi bunga misol. Biroq bu harakat Ozzie tomonidan aniqlangan. Chunki Ozzie tanimagan klan jamoasining bir a'zosi uni chaqirgan edi. Hikoya oxirida dinamit o'rnatilib, klan jamoasi Jakening uyini yoqib yubordi.

### 5) *Jake Brigancening idorasi*

"A time to kill" romanidagi voqealar tasvirlangan navbatdagi joy - bu Jake Brigancening idorasi. U bir paytlar Vilbanks oilasining ravnaq topgan paytidagi oilaviy huquqshunoslik idorasi bo'lgan. Lucien Vilbanksning ruxsatnomasi bekor bo'lganidan keyin bu idora Jakega arzon ijaraga berilgan. Bu yerda Jake o'z yumushlari bilan shug'ullanardi. Jake va uning jamoasi uchrashuvlar tashkil qilib, o'xhash masalalarni muhokama qiladigan joy edi. John Grisham idora binosini ham batafsil tasvirlab beradi:

"Qayd daftarlari Jakening stoli ustiga sochilib ketgan, u bularning hammasidan charchagan edi. U qaydnomalarni qisqacha varaqlab chiqdi, so'ngra fransuz eshiklari tomon yurdi. Ochiq derazalardan baqir-chaqir ovozlari eshitilardi. U yana stol tomonga qaytib, bo'lajak hakamlar hay'atiga aytadigan o'zining kirish izohlarini o'rganib chiqdi. Ilk taassurot tanqidiy edi. Jake divanga cho'zilib ko'zini yumdi va o'zi qilishni afzal ko'rgan minglab narsalar haqida o'yldi. Odatda u o'z qilayotgan ishlaridan zavqlanar edi. Biroq shunday vaziyatlar, qo'rqinchli lahzalar bo'lganki, u shunday paytlarda sug'urta agenti yoki birjada dallol bo'lishni xohlagan. Yo bo'lmasa, soliq advokati bo'lishni orzu qilgan." (Grisham, 1992: 420).

Yuqoridagi jumlalarda Jakening Carl Lee Haileyning ishini ko'rib chiqayotgandagi vaziyati, idorasidagi faoliyati qay tarzda bo'lganligi tasvirlab berilgan. Bu yerda Jake va uning do'stlari Harry, Ellen va Lucien hakamlar a'zolarining ma'lumotlarini muhokama qilish uchun uchrashardilar. Jake hattoki butun tun bo'yi o'sha yerda uqlab, faqatgina kiyimini almashtirish uchun uyiga keladi.

### ➤ *Zamon kategoriyasi*

"A time to kill" romanida vaqt - zamon munosabatlari ifodalanishi o'zining mukammal mexanizmiga ega. Tunda, hamma uqlab yotgan bir vaqtda John Grisham o'z mijozining ishini o'rganayotgan advokat haqida hikoya qilib beradi. Ushbu romanda umumiy jinoyatlar ko'pincha tunda sodir bo'ladi. Yozuvchi har doim Klan tashkiloti a'zolarining terrorchilik, zo'ravonlik va boshqa jinoyatlarini tunda sodir etilganligini alohida xususiyat sifatida namoyon etadi.

"Bir necha daqiqalardan so'ng o'rinosbasar Marshall Prather Adamsni rad etdi va shu zahoti ko'zi Jakening old hovlisida alangalanib yonayotgan xochga tushdi. U mashinalar yo'lagiga burilib, Saab orqasida to'xtab qoldi. Eshik qo'ng'rog'ini

chaldi va ayvonda turib alangani kuzatdi. Soat dearli uch yarim edi. U yana chaldi. Xochning charsillab yonishi va ellik fut narida yonayotgan o'rmonning qarsillab yonishidan boshqa hamma joy qorong'u va jim edi. Nihoyat Jake old eshikdan qoqilib o'tib, o'rinbosarning yonida hayratda qotib qoldi. Ular ikkisi ayvonda yonma-yon turishib, nafaqat yonayotgan xochni, balki uning nima maqsadda yonayotganini ham hayrat bilan kuzatib turardilar." (Grisham, 1992: 181).

Yuqorida Ku Klux Klan ning tunda sodir etgan jinoyatlaridan biri tasvirlanib, u Jakening uyi oldidagi xochning yonida boshlanadi. Bu Klan tashkiloti paydo bo'lishining birinchi belgisi edi.

Tongda esa yozuvchi Grisham odamlarning umumiy o'rnatilgan tartibini ko'rsatadi. Tongda uyg'onish, dush qabul qilish, nonushta qilish va ishga borish uchun tayyorlanish kabilar. Ushbu holat quyidagi iqtibosda atroficha tasvirlangan:

"Jake dushda bu haqida o'yladi. U tez dush qabul qildi, soqolini olib, tezda kiyindi. U ertalab soat 6:00 da qahvaxonada bo'lishiga to'g'ri keldi. Chiroqlarni yoqdi va Karlani uyg'otish uchun tortma va shkaf eshiklarini taqqillatib urdi. Bu yozdagi ya'ni u mакtabda dars bermayotgan vaqtdagi tonggi marosim edi. (Grisham, 1992: 19).

Sana va kunlardan foydalanish bu romanda katta ahamiyat kasb etib, Grisham muhim rejalashtirilgan voqealarini aniq vaqtlar bilan eslab o'tadi. Umuman olganda "A time to kill" asari yozda sodir bo'lgan voqeani aytib beradi. Guvohi bo'lganingizday, bu iqtibosning oxirgi jumlasida aytib o'tilgan.

#### ➤ *Huquqiy munosabatlar yoki atrof-muhit kategoriysi*

John Grisham o'z asari orqali aytib beradigan hikoyalar u guvoh bo'lgan ijtimoiy muhitdagi voqealar, jumladan, haqorat, zo'ravonlik, sud fitnasi va qotillik kabilarga asoslanadi. Ijtimoiy qo'zg'alонни quyidagi iqtibos orqali tahlil qilamiz:

"Xo'sh, u Noosega qo'ng'iroq qilib, sud jarayonini Ford okrugida o'tkazishni taklif qilish uchun tuman bo'y lab siyosiy do'stlar orttirayotgan edi. Ba'zilar Noose bilan haqiqattan ham ochiqchasiga gaplashdi. Unga "sud jarayonini keyinga ko'chiring, va biz sizni keyingi saylovga qabul qilamiz. Sudni Klantonda qoldiring, biz sizning saylanishingizga yordam beramiz" kabi takliflarni taqdim etishdi. Bundan tashqari, unga nisbatan siyosiy tahdid emas, balki o'ldirish bilan tahdid qilindi. Men u o'limdan qo'rqqanini eshitdim. Hozir uning uyini qurollar bilan politsiya qo'riqlaydi." (Grisham, 1992: 289-290).

Bu iqtibos orqali qonunga siyosiy aralashuvni tushuntiradi. Noose Karl Lee sudining joyini boshqa bir adolatliroq joyga ko'chirishga jur'at eta olmadi. Agar u Jakening iltimosini bajarib, Karl Lee sudini Klantondan tashqaridagi adolatli hakamlar hay'ati ixtiyoriga o'tkazsa edi, keyingi saylovlarda sudyalik lavozimini egallay olmasdi. Noose ba'zi noma'lum odamlarning tahdidiga ham uchradi. Bir qancha shubhali qo'ng'iroqlarni qabul qildi.

Asarda hushyorlik yuqori darajada. Qahramonlar har bir yuz berayotgan vaziyatlarni sinchikovlik bilan kuzatib turadi. Hamma eng yaxshi mavqega ega bo'lishni xohlaydi. Ijtimoiy muhitningadolatsizligi qonun o'z doirasida adolatli ish olib borishiga yo'1 qo'ymaydi. Ma'lum bir lavozimni egallab turgan odamlar o'zlarining shaxsiy manfaatlarini har narsadan ustunroq deb biladilar.

"A time to kill" asarida Grisham Karl Lee va uning ukasi Lester bilan bog'liq vaziyatlardagi farqni tushuntiradi. Farq shunda ediki, Lester ozchilikni tashkil qiluvchi afro-amerikanlarni, Karl Lee esa irqchilik harakatlarini olib borgan oq tanlilarni o'ldiradi. Lekin ikkalasini ishini ham o'n ikkita oq tanli hakamlar ko'rib chiqadi.

**CONCLUSION:** John Grishamning "A time to kill" romani jinoiy ish sud jarayonlari, qahramonlar, joylar va har bir yuz bergen voqeanning aniq vaqtłari haqida kitobxonga batafsil ma'lumot bergen. Asardagi makon va zamon kategoriyalari, ijtimoiy muhitning voqealar rivojiga qay darajada ta'sir o'tkazayotgani mohironalik bilan tasvirlangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. John Grisham. A time to kill. 1992
2. Fredickson, M. Goerge. (1996). Black Liberation: A Comparative History Of Black Ideologies In The United States And South Africa. Oxford: University Press paperback.
3. Renita Pausi Ardila. Social Criticism in John Grisham's A time to kill. Thesis
4. Duncan, M. Cynthia. (2014). Worlds Apart: Poverty and Politics in Rural America. Second Edition. New
5. RANDOM HOUSE, INC. TEACHER'S GUIDE. A time to kill written by John Grisham
6. <https://www.gradesaver.com/a-time-to-kill/study-guide/summary>